

Ilova Konstruksiya Tarkibidagi Ilovali Elementlarning Murakkab Strukturali Shakllari

Raximov Mirzali Rabbimovich (PhD)¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun nemis tilshunosligida badiiy matndagi lovali elementlarning murakkab strukturali shakllari haqida hikoya qilinadi. Bunda taniqli nemis yozuvchisi A. Zegersning “Das Vertrauen” nomli romanida yozuvchi tomonidan qoʻllangan bir qator murakkab ilovali elementlar tahlil qilingan. Shu bilan birga ushbu maqolada tasvirlanayotgan voqea hodisa kitobxonga batafsil va tushunarli yetib borishi uchun qoʻshimcha komponentlar, yaʼni ilovali elementdan foydalanish ilmiy asoslangan.

Kalit soʻzlar: badiiy matn, yetakchi komponent, mantiqiy urgʻu, qurilma komponenti, murakkab strukturaviy guruh, lingvistik mohiyat, strukturaviy tarkib, sintaktik aloqa, auch, und, und auch bogʻlovchilari ilovali element sifatida, parallelizm xususiyat.

Bugungi kunda tilshunoslikda fanida ilova konstruksiyalar haqida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilayapti va maʼlum darajada ilmiy yangiliklar yuzaga kelayapti. Ana shunday izlanishlar qatoriga ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning murakkab strukturali shakllari haqida fikr yuritmoqchimiz. Bunda biz taniqli nemis yozuvchisi Anna Zegersning “Das Vertrauen” nomli romanida qoʻllanilgan bir qator ilova konstruksiyaʼning murakkab strukturali shakllarini oʻrganib chiqdik. Asarda ilovali elementlar bilan bir qatorda murakkab ilovali elementlarni uchratish mumkin.

Avalo, murakkab strukturaviy ilova konstruksiyasiga taʼrif bersak: Ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlarga ajratish ilovadagi asosiy gap(ifoda)ning strukturasi hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Sodda strukturali ilova konstruksiyaʼni tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy ifodada ham, ilova qismida ham bir xil boʻlishi lozim, yaʼni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi talab qilinadi. Murakkab strukturali ilova konstruksiyaʼni tashkil etuvchi komponentlar esa, ham asosiy ifoda tarkibida, ham ilova qismida ikkitadan kam boʻlmasligi lozim.

Demak, murakkab strukturali konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan ilovali elementlarning miqdori barobariga oshishi kerak, yaʼni ikkitadan kam boʻlmasligi lozim. Shu oʻrinda aytish mumkinki, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlarga ajratishda ularning lingvistik mohiyatiga tayaʼnish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham ilovali elementlarning aytilgan fikrlarga qoʻshimcha maʼno, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Koʻrinadiki, bunday ilovali elementlarning miqdori bittadan ortiq boʻlgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Fikrimizni boshqacha qilib aytadigan boʻlsak, murakkab strukturali ilova konstruksiya deb asosiy ifodaga birikadigan ilovali elementlar ikki yoki undan ortiq boʻlib, ular asosiy ifodaga har xil yoʻllar bilan birikib yaxlit bir sintaktik birlikka aylanadi. Bu birikish oʻzining xususiyatiga koʻra har xil boʻlishi mumkin. Bu holatni damit, und, dann kabi biriktiruvchi vositalar yordamida quyidagi misollar tahlili orqali koʻrib chiqishimiz mumkin.

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti



1. **Damit-** biriktiruvchi vositasi yordamida birikkan ilovali elementlar:

Vor allen Dingen mußst du mal fähig sein, aufs Sprungbrett raufzuklettern, nicht schlappzumachen. Damit es zum Freischwimmen kommt. Damit sie dich delegieren auf die Hochschule(145).

2. **Und-** biriktiruvchi vositasi yordamida birikkan ilovali elementlar:

- a. Sieh mal, Vater, Bernt, das ist eine wertvolle Kraft. Ich glaube, eine von Weiruf. Und sie steht zu deiner Verfügung. Und ich würde ihn einstellen mit oder ohne Fragebogen (84-85).
- b. Damals war auch schon Heinz sehr hinter mir her. Und er war allein, und seine Mutter war furchtbar krank. Und er ließ sie nicht im Stuck(449).
- c. Thomas rührte auf Pimis Geheiß die Suppe an. Ein Pullover aus einer komischen Tüte. Und er öffnete zwei Konservenbüchsen. Und alles unter dem Mond(167).

Bu kabi ilova konstruksiyalarda murakkab strukturaviy ilovali elementlar asosiy ifodaga bir xil sintaktik tabiatiga ko'ra ega bo'lgan biriktiruvchi vositalar yordamida birikib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, biriktiruvchi vositalar vazifalarida teng bog'lovchilar qatnashganligini ko'rish mumkin.

3. **Dann-** biriktiruvchi vositasi yordamida birikkan ilovali elementlar:

- a. Die den Mut hatten, sich unablässig für mich einzusetzen. Es war wie ein Wunder, ich kam frei. Dann kam der Krieg(438).
- b. Auf einmal sah Thomas etwas vorbeiglitschen hinter dem Paar Toms-Lene. Ein Mädchen in rot und braun gesprenkelten Kleid. Er sah nur eine Sekunde lang ihr Gesicht unter all den fremden Gesichtern. Dann tauchte es schon wonders auf in dem freudigen Wirbel. Dann war es wieder verschwunden(444-445) .
- c. Thomas erschrak, als hätte er wunder was verloren. Dann tauchte das Mädchen wieder auf in keinerlei Wirbel, sondern in einem weichen Gleiten. Dann war das Mädchen wieder verloren. Dann war es wieder da(445).

Keltirilgan misollardan shuni ko'rish mumkinki, asosiy ifodaga birikuvchi ilovali elementlarning soni ikki yoki undan ortiqligini ko'ramiz. Ilovali elementlarning sonini ortib borishi ular tomonidan asosiy ifodaga nisbatan anglashib keladigan tushuncha, ya'ni qo'shimcha ma'no hajmi yanada salmoqliroq bo'lib boradi va o'z navbatida asosiy ifodaga nisbatan ilovali elementlarinig yanada muhimroq ekanligi ko'rinadi. Bu kabi murakkab strukturali ilova konstruksiyalarda ularning komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalarning hajmini kengaytiradi. Bunday sintaktik aloqalar dann biriktiruvchi vositasi bilan tiklanib qolmasdan, ayrim hollarda leksik birliklar ko'magida amalga oshishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu leksik birliklar asosiy ifoda bilan ilovali elementlar o'rtasida takrorlanmasdan va aksincha, bu ilovali elementlar bir-birlarining tarkibiy qismi asosida takrorlanib keladi. Bu holatni biz uchinchi misolda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yana shunday holatlar ham borki, strukturali ilovali elementlarni yasashda bir vaqtning o'zida biriktiruvchi vosita vazifasida ham teng bog'lovchi, ham ergashtiruvchi bog'lovchi kelishi mumkin. Bunday holatni biz keltirilgan quyidagi misollar tahlili yordamida ko'rib chiqishimiz mumkin:

Als, aber- biriktiruvchi vositalar bilan birikkan ilovali elementlar;

Sie hatte den Krieg mit Mann und Haus überstanden. Als sei es sicher in ihrem Umkreis. Aber sie hatte nun mal keine Kinder(119).

Als, und, damit- biriktiruvchi vositalar bilan birikkan ilovali elementlar;

Einmal, nachts, kam es Thomas vor, als tönten draußen Stimmen. Er hörte auch Pimis Stimme, schnell und kurz. Er wußte nicht, ob er träumte. Als er die Hand ausstreckte, bekam er Pimis Haarschweif zu fassen. Und er wickelt ihn um sein Handgelenk. Damit sie ihm nicht noch mal entwischen könne in ein unsinniges Getäume(167).

Ala, als- biriktiruvchi vositalar bilan birikkan ilovali elementlar;



Bei seiner Rückkehr nach Greilsheim hatte sich Waldstein so benommen, als sei er nur ein paar Stunden weggeblieben. Als hätte er nie in der Bande gesteckt, nie in dem Gemäuer. Als hätte er nur was besorgt in Schmiede(97).

Wen, wenn- biriktiruvchi vositalar bilan birikkan ilovali elementlar;

Sag mal, sagte Richard, hast du irgendwas oben zu trinken? Sonst hoflich und schnell was. Wenn ich jetzt zehn Minuten zu dir hinaufkomme. Wenn dir das recht ist(390).

Daß, daß- biriktiruvchi vositalar bilan birikkan ilovali elementlar;

Geglaubt, sagte Meeseberg. Was glaubst du nicht alles. Ich weiß dafür verschiedenes. Daß wir von Feinden umgeben sind. Daß Menschen sich Pläne aushecken(214).

Wenn- biriktiruvchi vositasi bilan birikkan ilovali elementi;

Thomas sagte, den Ernst, den seh ich jetzt jeden Tag. Wenn er etwas aus dem Rohrwerk in unsere Reperatur schleppt(36).

Biz yuqorida ko'rib chiqqan misollarda ilovali elementlar als, wenn hamda daß biriktiruvchi vositalar yordamida asosiy ifodaga birikib kelgan va unga nisbatan qiyosiy shart hamda to'ldiruvchi xususiyatlariga ega bo'lgan qo'shimcha munosabat bildirib kelganligini ko'rib chiqdik. Murakkab strukturali ilova konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyalaridan yana biri bu murakkab strukturaning tashkil etishda bir vaqtning o'zida ham biriktiruvchi vositalar yordamida kelgan ilovali elementlarning, ham biriktiruvchi vositalarsiz kelgan ilovali elementlarning ishtirok etishidir. Bunday murakkab strukturaviy ilova konstruksiyalar yuqorida ko'rib chiqilgan ba'zi murakkab strukturali shakllardan farq qiladi ular orasidagi mavjud bo'lgan farqlarni ko'rsatish uchun quyidagi misollarga e'tibor beraylik.

Wenn- biriktiruvchi vositasi bilan birikkan ilovali elementlar;

- a. Sie suchten den Platz mit den Tauben auf, und siehe, obwohl der ausgemachte Zeitpunkt längst vorbei war, trafen sich diese beiden. Wenn Herbert nicht wieder alles erfurten hat... (Anna Seghers 400).
- b. Und Herbst, der zum erstenmal hier war, stieß sofort auf Richhard, der zum hundertsten Mal hier war. Wenn nicht alles erfunden ist. Freilich schön erfunden(Anna Seghers 407).

Bu misollar yordamida shuni xulosa qilish mumkinki, keltirilgan murakkab strukturali ilovali elementlar bir biridan tuzilish niqtai nazardan farq qilmaydi. Ular orasidagi farq asosan ma'no munosabatlari bilan belgilanadi. Ilovali elementlar tomonidan asosiy ifodaga nisbatan qo'shimcha ma'no quyidagi ma'nolarda; birinchi misolda shart + qiyoslash; ikkinchi misolda payt + aniqlovchi teng ma'noni anglatgan holda mazmun kasb etgan. Berilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, murakkab strukturali ilova elementlar sonining ortib borishi asnosida, ular tomonidan asosiy ifoda yoki uning qaysidir bo'lagiga nisbatan anglatadigan qo'shimcha ma'no ham kengayib borishini ko'rish mumkin, yan ilovali elementlarning murakkablashishiga olib kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, qo'shimcha natijasida paydo bo'lgan ilovali elementning funksiyasi uning butun asosiy ma'nosini qamrab ololmaydi. Ilovali element nafaqat qo'shimcha(xabar) qilish xususiyatiga ega, u asosiy ifoda(gap) mazmunini aniqlashtirish, tushuntirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu aytib o'tilgan hamma xususiyatlar ilova konstruksiyalarni o'ziga xos sintaktik-stilistik hodisa deb hisoblash imkonini beradi, ularning qo'llanilishi esa nutqqa o'ziga xos ma'no va ekspressiv - stilistik nozikliklarni berishni va ifodaning ayrim komponentlariga katta mazmun hamda emotsional baho berishni taqazo etadi.

Murakkab sintaktik butunlik komponentlari o'rtasidagi ilova aloqalarning paydo bo'lishini aniqlashda bog'lovchilar tahlili yoki gap strukturasi tahlili birinchi o'ringa qo'yiladi. Ilovali element va asosiy ifoda o'rtasidagi ilova aloqalarining mavjudligini aniqlashga bunday yondashuv turli tillar sintaksisi bo'yicha olib borilgan dastlabki tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.



Yuqoridagi ilovalari elementlarning tahliliga tayanib, ularga xos bo'lgan yana bir sintaktik xususiyatni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq, u ham bo'lsa ilova konstruktsiya tarkibida keluvchi asosiy ifoda bilan ilovalari elementlarning strukturaviy shakllanishidir. Haqiqatdan ham, agarda biz bu yerda tahlil qilingan va tahlil qilinishi lozim bo'lgan ilova konstruktsiyalarning strukturaviy shakllanishini bir-biriga qiyos qilib o'rgansak, yuqoridagi mulohazaning to'g'riligiga to'lig'icha ishonamiz, chunki ilova konstruktsiyalar har-xil strukturaviy shakllanishga ega. Bunday shakllanishda yo asosiy ifoda, yo ilovalari element ma'lum murakkablashgan shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi boshqa misollardagi ilovalari elementlarning strukturaviy shakllanishidan keskin farq qiladi.

Keltirilgan misollarga asosan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilova konstruktsiyalarning murakkab strukturali shakllari ham bizning tadqiqot markazimizda muhim o'ringa ega deb o'ylaymiz. Albatta, biz bu yerda murakkab strukturali ilova konstruktsiyalarning barcha jihatlarini ochib bera olmadik. Muxtasar qilib aytganda, murakkab strukturali ilova konstruktsiyalar yana boshqacharoq strukturali xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ularni to'liq o'rganish bu yozuvchiga xos bo'lgan uslubni to'liq bayon qilish demakdir.

Adabiyotlar:

1. Seghers Anna. Das Vertrauen. Aufbauverlag. – Berlin und Weimar. 1971.
2. Кобзев П.В. Присоединительных конструкции как разновидность неполных предложений. Ученые записки Ленингр. Гос. Унта. –Л., 1969. Т. – 258. – С.55-74.
3. Крючков С.Е. О присоединительных связях в современном русском языке. Ж., Русский язык в школе, 1950, №2. –С 12-20. филол.наук. – М., 1960. – 15 с.
4. Попова И.А. Сложносочиненные предложения в современном русском языке. Кн.: Вопросы синтаксиса современного русского языка. – М., 1950. – С. 355-396.
5. Турсунов Б.Т., Облокулова С.Х. Библиографический указатель по вопросам сложного синтаксического целого, присоединения, парцеллирования. – Самарканд: СамГУ, 1982. – 76 с.
6. Sadikova, B. M. (2021). ITALYAN PAREMIOLOGIYASIDA ANTONIMIK KORRELIYATSIYALI MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI. 23April, 2021, 9.
7. Sadikova, B. (2021). PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBINING MILLIY-MADANIY SEMANTIK KOMPONENTLARI. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
8. Sadykova, B. (2016). Emotional words and tropes in the roman of italian author N. Ammaniti" I don't fear". In *SCIENCE AND PRACTICE: A NEW LEVEL OF INTEGRATION IN THE MODERN WORLD* (pp. 123-125).

